TOSHKENT VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI

# TOSHKENT VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

*2021- YIL YANVAR-OKTABR*

Sanoat statistikasi
bo‘limi
Tel.: 71-202-86-66

# Toshkent viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2021- yil yanvar-oktabr)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha, 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 65868,4 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2020- yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 111,2 %ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 88,1 %ni tashkil etdi.







***B***–*Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash,* ***C***-*Ishlab chiqaradigan sanoat* ***D***-*Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash,* ***E***-*Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* *%da*







Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo‘lib, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 2,4 %ga, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda – 18,1 %ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 12,7 %ga hamda elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning – 6,1 %ga o‘sishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi*** *- ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, *%da*




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,6 trln. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,9 %ini tashkil etdi.

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, %da**

**Ko‘mir** | **Kaolin** | **Tabiiy gaz**




## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-oktabr | 2021- yil yanvar-oktabr | Farqi (+/-) |
|---|---|---|---|
| Ko‘mir, ming t. | 2913,2 | 3923,9 | 1010,7 |
| Chaqiq tosh, ming t | 327,2 | 406,3 | 79,1 |
| Shag‘al , ming t. | 38,6 | 3,1 | -35,5 |
| Kaolin, ming t. | 273,9 | 334,2 | 60,3 |

# Ishlab chiqaradigan sanoat




2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 58,0 trln. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 88,1 %ini tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning 1,0 %ni (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida - 1,5 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 8,8 % (11,5 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 55,8 % (51,8 %) va quyi texnologiyalisi – 22,6 % (21,9 %)ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 6,1 % (2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,5 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 48,1 % (2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,7 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 8,6 % (2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 124, %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 12,1 % (2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,6 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,8 % (2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,5 %)ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-oktabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 119,1 ming dona avtomobil dvigitellari (2020- yilning mos davriga nisbatan 38,1 %), 33,186 ming tonna kalava ip (26,3 %), 131,3 mln. litr pivo mahsulotlari (7,1 %), 284,8 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (3,2 %) ishlab chiqarildi.

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, %da**

**O‘simlik yog‘I (tozalangan)**




**Pishloq va tvorog**




**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**




**Pivo**




**Aroq**




**Uzum vinosi**



| Sement | Paxta chigiti | Kalava ip |
|---|---|---|










## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-oktabr | 2021- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t. | 278,7 | 284,8 | 6,1 |
| Paxta tolasi, ming t.. | 27,9 | 36,8 | 8,9 |
| O'simlik yog'i (tozalangan), ming t. | 4,9 | 3,3 | -1,5 |
| Portlandsement, ming t. | 4107,4 | 4439,4 | 331,9 |
| Kultivatorlar,dona. | 573 | 204 | -369 |
| Avtomobil dvigitellari, ming dona | 192,6 | 119,1 | -73,5 |

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, etil spirti (101,8 %) mahsulotida o'sish ko'rsatkichlari qayd etildi.

Shuningdek, ammoniy nitrat (2020-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 6,2 %) mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida pasayish kuzatildi.

**O'tgan yilning mos davriga nisbatan,** *%da*

| Ammoniy sulfat | Ammoniy nitrat | Etil spirti |
|---|---|---|









# Elektr, gaz, bug‘ bilan taminlash va havoni konditsiyalash

*2021- yilning yanvar-oktabr oylarida*







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5,0 trln. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,7 %ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,1 %ga o‘sishi kuzatildi.

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-oktabr | 2021- yil yanvar-oktabr | Farqi (+/-) |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt.s* | 14305,5 | 13197,3 | -1108,2 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 3061,0 | 3046,8 | -14,2 |
| **Ko‘mirni yer ostida gazga aylantirish natijasida hosil bo‘lgan gaz,** *ming kub. m.* | 255148,0 | 227149,0 | -27999,0 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish







Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan o‘ygan davr mobaynida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,2 trln. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 %ini) tashkil etdi.

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-oktabr | 2021- yil yanvar-oktabr | Farqi (+/-) |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, mln.so‘m** | 30415,7 | 47281,3 | 16865,6 |
| **Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash xizmatlar, mln.so‘m** | 76125,8 | 126529,1 | 50403,3 |

O‘tgan yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan, Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash xizmatlarida 81,9 %ga o‘sish kuzatildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 14065,1 mlrd.so‘mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 14,7 %ga o‘sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 22,1 %ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 13,1 % (2020- yil yanvar-oktabr oylarida 17,9 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Zangiota tumaniga to‘g‘ri kelib 18,9 %ni, shuningdek, Ohangaron shahri - 9,1 %ni, Qibray tumani - 10,7 %ni, Angren shahri - 7,2 %ni hamda Chirchiq shahri - 10,0 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat o‘sish sur’ati (114,7 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Bekobod (159,4 %), Chirchiq (119,0 %) shahlarida hamda Quyi Chirchiq tumanida (123,6 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-oktabr oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|---|
| Toshkent viloyati | 14 065,1 | 100 | 114,7 |
| Nurafshon. | 179,5 | 1,3 | 103,9 |
| Bo'ka | 122,6 | 0,9 | 116,1 |
| Olmaliq | 351,5 | 2,5 | 121,2 |
| Zangiota | 2661,5 | 18,9 | 132,6 |
| Angren | 1 018,7 | 7,2 | 106,3 |
| Yuqori Chirchiq | 637,4 | 4,5 | 106,1 |
| Bekobod | 240,9 | 1,7 | 159,4 |
| Quyi Chirchiq | 238,8 | 1,7 | 123,6 |
| Ohangaron | 1286,8 | 9,1 | 101,9 |
| Qibray | 1506,5 | 10,7 | 112,8 |
| Chirchiq | 1409,6 | 10,0 | 119,0 |
| Parkent | 248,0 | 1,8 | 117,3 |
| Yangiyo'l | 324,7 | 2,3 | 101,0 |
| Piskent | 249,8 | 1,8 | 109,5 |
| Oqqo'rg'on | 439,7 | 3,1 | 129,3 |
| O'rta Chirchiq | 373,3 | 2,7 | 108,5 |
| Ohangaron | 125,8 | 0,9 | 104,3 |
| Chinoz | 263,1 | 1,9 | 80,5 |

| | Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|---|
| Bekobod | 143,4 | 1,0 | 98,6 |
| Yangiyo'l | 559,4 | 4,0 | 110,1 |
| Bo'stonliq | 624,9 | 4,4 | 140,0 |
| Toshkent | 1 059,1 | 7,5 | 99,8 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining jami hajmidagi eng yuqori ulush Chirchiq shahriga to‘g‘ri kelib 16,1 %ni, shuningdek, Ohangaron shahrida - 13,3 %ni, Qibray tumanida - 5,4 % ni, Toshkent tumanida - 9,6 %ni, Zangiota tumanida - 9,5 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida yuqori ko‘rsatkich Bekobod (179,3 %) hamda Chirchiq shaharlarida (130,6 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-oktabr oyida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Toshkent viloyati | 6933,5 | 100,0 | 116,4 |
| Nurafshon. | 124,0 | 1,8 | 108,2 |
| Bo'ka | 68,4 | 1,0 | 122,5 |
| Olmaliq | 250,7 | 3,6 | 124,4 |
| Zangiota | 657,6 | 9,5 | 114,9 |
| Angren | 507,5 | 7,3 | 120,9 |
| Yuqori Chirchiq | 265,6 | 3,8 | 109,1 |
| Bekobod | 196,2 | 2,8 | 179,3 |
| Quyi Chirchiq | 144,5 | 2,1 | 128,9 |
| Ohangaron | 925,4 | 13,3 | 99,7 |
| Qibray | 377,0 | 5,4 | 108,5 |

| | Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|---|
| Chirchiq | 1116,5 | 16,1 | 130,6 |
| Parkent | 149,9 | 2,2 | 142,8 |
| Yangiyo'l | 206,6 | 3,0 | 106,8 |
| Piskent | 70,6 | 1,0 | 103,8 |
| Oqqo'rg'on | 183,7 | 2,7 | 166,0 |
| O'rta Chirchiq | 215,1 | 3,1 | 120,1 |
| Ohangaron | 70,9 | 1,0 | 108,4 |
| Chinoz | 156,8 | 2,3 | 87,9 |
| Bekobod | 78,9 | 1,1 | 101,0 |
| Yangiyo'l | 359,2 | 5,2 | 128,3 |
| Bo'stonliq | 142,5 | 2,1 | 103,7 |
| Toshkent | 665,9 | 9,6 | 110,4 |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Zangiota tumaniiga to‘g‘ri kelib 27,6 %ni, shuningdek, Qibray tumani - 15,7 %ni, Ohangaron shahri - 5,2 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Bekobod (124,2 %), Olmaliq (115,8 %) hamda Ohangaron shaharlarida (108,1 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-oktabr oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|---|
| **Toshkent viloyati** | 7131,6 | 100,0 | 112,2 |
| Nurafshon | 56,9 | 0,8 | 96,4 |
| Bo‘ka | 54,5 | 0,8 | 109,2 |

| Tuman/shahar | Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|---|
| Olmaliq | 104,2 | 1,5 | 115,8 |
| Angren | 511,1 | 7,2 | 95,2 |
| Bekobod | 48,1 | 0,7 | 124,2 |
| Ohangaron | 374,1 | 5,2 | 108,1 |
| Chirchiq | 311,4 | 4,4 | 92,4 |
| Yangiyo‘l | 120,1 | 1,7 | 93,1 |
| Oqqo‘rg‘on | 254,3 | 3,6 | 111,5 |
| Ohangaron | 55,2 | 0,8 | 99,8 |
| Bekobod | 64,8 | 0,9 | 96,0 |
| Bo‘stonliq | 474,9 | 6,7 | 154,7 |
| Zangiota | 1967,6 | 27,6 | 138,7 |
| Yuqori Chirchiq | 371,3 | 5,2 | 104,3 |
| Quyi Chirchiq | 91,3 | 1,3 | 109,4 |
| Qibray | 1118,0 | 15,7 | 114,1 |
| Parkent | 106,6 | 1,5 | 97,3 |
| Piskent | 177,8 | 2,5 | 109,3 |
| O‘rta Chirchiq | 157,0 | 2,2 | 97,0 |
| Chinoz | 108,4 | 1,5 | 72,2 |
| Yangiyo‘l | 203,7 | 2,9 | 89,8 |
| Toshkent | 400,1 | 5,6 | 86,7 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-oktabr oylarida*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 13351,3 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 20,2 %ni tashkil etdi.

## Toshkent viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*2021- yilning yanvar-oktabr oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|---|
| Toshkent viloyati | 65 868,4 | 100,0 | 111,2 |
| Nurafshon. | 813,1 | 1,2 | 88,5 |
| Bo‘ka | 328,8 | 0,5 | 164,0 |
| Olmaliq | 26 720,0 | 40,6 | 113,8 |
| Zangiota | 4 921,9 | 7,5 | 102,0 |
| Angren | 4 285,4 | 6,5 | 101,9 |
| Qibray | 4 061,0 | 6,2 | 110,7 |
| Bekobod | 7 616,7 | 11,6 | 110,7 |
| Quyi Chirchiq | 522,1 | 0,8 | 120,8 |
| Ohangaron | 3 030,0 | 4,6 | 98,2 |
| Parkent | 385,0 | 0,6 | 105,8 |
| Chirchiq | 4 450,3 | 6,8 | 103,3 |
| Piskent | 411,3 | 0,6 | 121,7 |

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|---|
| Yangiyo‘l | 509,0 | 0,8 | 99,6 |
| O‘rta Chirchiq | 595,5 | 0,9 | 106,1 |
| Oqqo‘rg‘on | 618,6 | 0,9 | 101,3 |
| Chinoz | 446,6 | 0,7 | 98,4 |
| Ohangaron | 452,7 | 0,7 | 106,6 |
| Yuqori Chirchiq | 1 333,5 | 2,0 | 103,0 |
| Bekobod | 341,3 | 0,5 | 112,5 |
| Toshkent | 1 363,2 | 2,1 | 105,3 |
| Bo‘stonliq | 1 465,2 | 2,2 | 106,8 |
| Yangiyo‘l | 1 197,2 | 1,8 | 113,2 |

## Toshkent viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati, %da



Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining kamayishini, Oqqo‘rg‘on tumanida (2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 98,2 %) hamda Nurafshon shahrida (88,5 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligi bilan izohlashimiz mumkin.

## Toshkent viloyatida jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, %da

Viloyatda sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Olmaliq (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 40,6%), Bekobod (11,6 %), Chirchiq (6,8%), Angren (6,5%) va Ohangaron (4,6 %) shaharlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Ohangaron (0,7 %) hamda Bekobod (0,5 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Olmaliq (199333,4 ming so‘m), Ohangaron (76832,9 ming so‘m) va Bekobod (78198,4 ming so‘m) shaharlarida o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (22060,1 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 4710,6 ming so‘m bo‘lgani holda, Ohangaron shahrida – 32630,6 ming so‘mni, Zangiota tumanida – 16531,6 ming so‘mni, Qibray tumanida – 8840,6 ming so‘mni, Chirchiq shahrida 8623,3 ming so‘mni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-oktabr oylarida, ming so‘m*

| | *Sanoat mahsulotlari* | *Iste’mol mahsulotlari* |
|---|---|---|
| **Toshkent viloyati** | 22 060,1 | 4 710,6 |
| Nurafshon | 15 637,1 | 3 452,6 |
| Bo‘ka | 2 560,5 | 955,0 |
| Olmaliq | 199 333,4 | 2 622,5 |
| Zangiota | 30 572,1 | 16 531,6 |
| Angren | 22 259,1 | 5 291,2 |
| Qibray | 23 832,0 | 8 840,6 |
| Ohangaron | 76 832,9 | 32 630,6 |
| Quyi Chirchiq | 4 717,7 | 2 158,2 |
| Bekobod | 78 198,4 | 2 473,2 |
| Parkent | 2 429,0 | 1 564,9 |
| Chirchiq | 27 224,5 | 8 623,3 |
| Piskent | 4 008,1 | 2 434,2 |
| Yangiyo‘l | 8 159,7 | 5 204,4 |
| O‘rta Chirchiq | 4 509,2 | 2 826,8 |

**Oqqo‘rg‘on**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 5 778,3 | 4 107,4 |

**Chinoz**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 3 253,6 | 1 916,8 |

**Ohangaron**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 4 644,3 | 1 290,4 |

**Yuqori Chirchiq**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 9 924,0 | 4 743,6 |

**Bekobod**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 2 126,7 | 893,4 |

**Toshkent**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 7 375,8 | 5 730,7 |

**Bo‘stonliq**

| anoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 8 534,0 | 3 639,9 |

**Yangiyo‘l**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 5 678,0 | 2 652,7 |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*2021- yilning yanvar-oktabr oylarida, %da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 11299,0 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 17,2 %ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bekobod (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (43,8%), Parkent (98,4%), Chinoz (54,4 %), Ohangaron (81,4 %) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Olmaliq (1,9 %), Bekobod (2,8 %) va Chirchiq (19,0 %) shaharlarida sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Viloyatda faoliyat koʻrsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**

*(2021- yil 1- noyabr holatiga koʻra)*

Bugungi kunda viloyatda 9585 ta sanoat korxonalari faoliyat koʻrsatmoqda, shundan 1359 tasi (roʻyxatdan oʻtgan korxonalar umumiy sonining 14,2 %) Zangiota tumaniga, 879 tasi (9,2 %) Qibray tumaniga, 841 tasi (8,8 %) Toshkent tumaniga, 473 tasi (4,9 %) Chirchiq shahriga, 461 tasi (4,8 %) Angren shahriga  toʻgri kelmoqda.




2021- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatda 1364 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 110 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 8,1 %) Qibray tumanida, 139 tasi (10,2%) Zangiota tumanida, 119 tasi (8,7%) Toshkent tumanida, 74 tasi (5,4 %) Yangiyoʻl tumanida, 74 tasi (5,4 %) Yuqori Chirchiq tumanida tashkil etildi.